XORAZM VILOYATI XIVA TUMANI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 30 - iyun 544-12-176-Q/22 Xiva tumani hokimligi

Xiva tumanida transport harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida tegishli yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Xiva tumanida piyodalar va transport vositalarining harakat xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida, Xiva tumani “Varangzan” mahallasi hududidan o‘tuvchi temir yo‘l (raz’ezd) oldiga 2.5 “To‘xtamasdan harakatlanish taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Xiva tuman IIB (B.Xaitbaev), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (D.Ibragimov) hamda tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (A.Matmuratov) mazkur qarorning 1-bandida ko‘rsatib o‘tilgan manzilga “To‘xtamasdan harakatlanish taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatilishini ta’minlasinlar va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “Xiva tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari D.Jumaniyazov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Х.Р.Матрасулов**